

O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Turizm xizmatlari  
Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga doir talablar

Rasmiy nashr

O'zbekiston standartlar instituti

STANDARTLAR INSTITUTI #10BN9TX5BZ - 13.05.2024 "TURIZMN HARIOJANTIRISH ILMIY-TEKSHIRISH INSTITUTI" DM

Toshkent shahri

## **So‘z boshi**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi huzuridagi “Turizmni rivojlantirish ilmiy-tekshirish instituti” davlat muassasasi TOMONIDAN ISHLAB CHIQILDI. STK 4 "Turizm va madaniy meros" standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita tomonidan TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston standartlar institutining 2024-yil 26-apreldagi 10/MSt - sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3. Ushbu standart ГОСТ Р 54602-2011 «Туристские услуги. Услуги инструкторов-проводников. Общие требования» ва ГОСТ Р 50681-2010 «Туристские услуги. Проектирование туристских услуг» Rossiya Federatsiyasining milliy standartlari bilan uyg‘unlashtirilgan.

## **4. DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI**

*Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.*

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy chop etish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

## **Mundarija**

1. Qo'llanish doirasi .....	1
2. Standartlarga havolalar .....	1
3. Atamalar va ta'riflar .....	1
4. Asosiy qoidalar.....	4
5. Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga umumiy talablar.....	5
6. Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga qo'yiladigan talablar.....	7
7. Taqdim etilayotgan xizmatlarning sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish va baholash usullari.....	7
A ilova.....	9

**O'ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

**Turizm xizmatlari**  
**Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga doir talablar**

**Туристские услуги**  
**Требования к услугам инструкторов-проводников**

**Tourism services**  
**Requirements for the services of instructors-conductors**

Amalga kiritish sanasi: 26.06.2024 y.

### **1 Qo'llanish doirasi**

Ushbu standart yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga hamda ularni shakllantirish va taqdim etish jarayonlariga doir umumiyl talablarni belgilaydi.

Ushbu standartning qoidalaridan kadrlarni tanlash va joylashtirishda, malaka imtihonini o'tkazishda, lavozim yo'riqnomalari va kasb standartlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Ushbu standart tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar tomonidan, hamda turizmning faol turlari bo'yicha turistik-ekskursiya xizmatlarini ko'rsatadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va/yoki o'zini-o'zi band qilgan shaxslar sifatida jismoniy shaxslar tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

### **2 Standartlarga havolalar**

Mazkur standartda quyidagi standartlarga me'yoriy havolalardan foydalilanilgan:

ГОСТ 32611-2014 «Туристские услуги. Требования по обеспечению безопасности туристов»

ГОСТ 32612-2014 «Туристские услуги. Информация для потребителей. Общие требования»

ГОСТ 32613-2014 «Туристские услуги. Услуги туризма для людей с ограниченными физическими возможностями. Общие требования»

O'z DSt ISO 18065:2019 “Turizm xizmatlari. Qo'riqlanadigan tabiiy hududlarning ma'muriyati tomonidan taqdim etiladigan, umumiyl foydalanish uchun turizm xizmatlari. Talablar”

O'z DSt ISO 21101:2022 (ISO 21101:2014, IDT) “Sarguzasht turizmi. Xavfsizlikni boshqarish tizimlari. Talablar”

O'z DSt ISO 21102:2022 “Sarguzasht turizmi. Yetakchilar. Xodimlarning layoqatliligi”

O'z DSt ISO 21103:2022 (ISO 21103:2014, IDT) “Sarguzasht turizmi. Ishtirokchilar uchun ma'lumot”

### **3 Atamalar va ta'riflar**

Ushbu milliy standartda ГОСТ 32611, O'z DSt ISO 21101, O'z DSt ISO 21102, O'z DSt ISO 21103 da keltirilgan quyidagi atamalar va ularning ta'riflari, shuningdek tegishli ta'riflar bilan quyidagi atamalar qo'llanilgan:

**3.1 yo'riqchi-yo'l boshlovchi:** Turistik marshrutlarda turistlar va ekskursantlarga hamrohlik qilish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs.

---

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #10BN9TX5BZ - 13.05.2024 "TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ILMIY-TEKSHIRISH INSTITUTI" DM

**3.2 yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlari:** Yo'riqchi-yo'l boshlovchi tomonidan turistik marshrutlar bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan turistik yurishlarni tayyorlash, tashkil etish va o'tkazish, shuningdek yuqori xavfli marshrutlarni o'z ichiga oladi.

**3.3 vakolatlilik:** Kutilgan natijalarga erishish uchun bilim va ko'nikmalarni qo'llash ko'nikmalari.

[Manba: O'z DSt ISO 21102, 3.2]

**3.4 turistik marshrut (turizmning faol turlari uchun):** FOCT 32611 ning xavfsizlik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan marshrutning murakkablik toifasini belgilagan holda turistik yurishda turistlarni (ekskursiyachilarini) kuzatib borish marshruti.

**3.5 turistik yurish:** Muayyan marshrut bo'ylab faol harakatlanish usullari bilan amalga oshiriladigan, o'rganish, dam olish, sport, ekstremal va boshqa maqsadlarda, yo'riqchi-yo'l boshlovchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda (yurish ishtirokchilarining o'zlarini kuch va vositalari bilan) turli xil tabiiy landshaftlarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladigan, sayohat turi.

**3.6 sayohat:** Har qanday hudud yoki akvatoriya bo'ylab ularni o'rganish maqsadida, shuningdek umumiylar ta'lim, o'rganish, sport, faol va boshqa turistik maqsadlarda harakatlanish.

**3.7 marshrut varag'i:** Toifali bo'lмаган yurishlar uchun hujjat. U turistik yurishni amalga oshiruvchi tashkilot tomonidan beriladi (turistik firma, o'quvchilar ijodiyoti markazi, maktab ma'muriyati, OTM sport klub, turistik klub va boshqalar).

**3.8 marshrut kitobchasi:** Toifali yurish uchun hujjat.

Izoh – Ariza hujjatlari (marshrut kitobchasi, uning nusxasi, ishtirokchilar, rahbar va rahbar o'rinnbosarlarining turistik tajribasi to'g'risidagi ma'lumotnomalar, kartografik material, tibbiy ma'lumotnomalar) e'lon qilingan yurishni ko'rib chiqish va guruhning marshrutdan chiqishini nazorat qilish uchun Qutqaruв xizmatida ro'yxatdan o'tish uchun komissiyaga (MMK) taqdim etilishi kerak.

**3.9 turistik-ekskursiya xizmatlari buyurtmachilari:** Ijro etuvchi (yo'riqchi-yo'l boshlovchi) tomonidan turistik va ekskursiya xizmatlarini qabul qilishdan manfaatdor shaxs (jismoniy yoki yuridik).

**3.10 turistik-ekskursiya xizmatlari bajaruvchilari:** Yuridik shaxslar, ularning tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tegishli malakaga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirdorlar va o'z-o'zini band qilgan shaxslar.

**3.11 yuqori xavfli marshrut:** Turistlarning (ekskursiyachilarining) hayoti va sog'lig'iga va ularning mulkiga zarar yetkazish xavfi ortishi bilan bog'liq bo'lgan tog'li yoki yurish qiyin bo'lgan joylar, speleologik, suv va boshqa obyektlar orqali turistik marshruti.

**3.12 murakkablik darajasi:** Sarguzasht turizmi faoliyatida ishtirok etishda duch kelishi mumkin bo'lgan jismoniy va psixologik qiyinchiliklarni talab qilinadigan texnik qobiliyat, relyef, balandlik yoki iqlim kabi omillarga asoslangan holda baholash.

[Manba: O'z DSt ISO 21103, 2.2]

**3.13 favqulodda vaziyat:** Shoshilinch choralar ko'rishni talab qiladigan jiddiy vaziyat.

[Manba: O'z DSt ISO 21101, 3.43]

**3.14 favqulodda choralar:** Voqeaga javoban amalga oshiriladigan oldini oluvchi yoki tuzatuvchi harakatlar va kelishilgan harakat rejasidan chetga chiqish zarurati.

[Manba: O'z DSt ISO 21102, 3.4]

**3.15 xavf:** Xavf – bu noaniqlik ta'siri.

[Manba: O'z DSt ISO 21101, 3.10]

**3.16 xavfni baholash:** Xavfning mohiyatini tushunish jarayoni va xavf darajasini aniqlash.

[Manba: ISO 21101, 3.30].

**3.17 xavf darajasi:** Oqibatlar va ularning ehtimoli kombinatsiyasida ifodalangan xavfning kattaligi yoki xavflar kombinatsiyasi.

[Manba: O'z DSt ISO 21101, 3.31]

**3.18 xatar:** Potensial zarar manbai.

[Manba: O'z DSt ISO 21101, 3.26]

**3.19 mustaqil turizm:** Turistlar tomonidan turoperatorlar va turagentlar ishtirokisiz mustaqil ravishda tashkil etiladigan sayohat.

**3.20 faol turizm:** Sayohatning faol turlaridan foydalangan holda turizm – piyoda, chang'i, velosiped, otlarda va boshqalar.

**3.21 turizmnинг faol turlari:** Maxsus jismoniy tayyorgarlikni va muayyan ko'nikma va mahoratlarga ega bo'lishni, shu jumladan asbob-uskunalar va transport vositalaridan foydalanishni talab qiladigan faol harakat usullari bilan tabiiy muhitda turistik sayohat, safar.

### **3.22 turizmnинг faol turlariga quyidagi turizm turlari kiradi:**

**3.22.1 sport turizmi:** Turistik marshrutlar va masofalarni bosib o'tish, shu jumladan tabiiy muhitda yoki sun'iy relyefda yotqizilgan murakkabligi bo'yicha toifalangan to'siqlarni (dovon, traversalar, cho'qqilar, jarliklar, kanyonlar, g'orlar va boshqalar) yengib o'tishga asoslangan faol turizm turi. Sport turizmiga turistik sport sayohatlari va turistik sport musobaqalari (marshrutlar va masofalar) kiradi.

**3.22.2 piyodalar turizmi:** Turistik marshrutlarni piyoda bosib o'tishni o'z ichiga olgan, shu jumladan tabiiy to'siqlarni (o'tish joylari, tog'li hududlar va boshqalar) yengib o'tishni ko'zda tutadigan, sayohatlar, turistik yurishlar.

**3.22.3 chang'i turizmi:** Chang'i turizmi marshrutlaridan o'tish, shu jumladan tabiiy to'siqlarni yengib o'tishni o'z ichiga olgan, sayohatlar, turistik yurishlar.

**3.22.3.1 snoubording:** Qor bilan qoplangan yon bag'irlardan va tog'lardan snoubordda tushishdan iborat bo'lgan faol turizm turi.

**3.22.4 tog' turizmi:** Tog' dovonlari, tepaliklari va traversalari, muzliklar va boshqalarni yengib o'tib, o'rta va baland tog'li hududlar bo'ylab tog' marshrutlarini piyoda bosib o'tishni o'z ichiga oladigan, sayohatlar, turistik yurishlar.

**3.22.5 suv turizmi:** turli xil suzib o'tish vositalarida (katamaranlar, sollar, raftlar, baydarkalar, kayaklar va boshqalar) to'siqlarni (yoriqlar, tezkor oqimlar, tezkor kaskadlar, kanyonlar, daralar) yengib o'tib, tekislik va tog' daryolari bo'ylab suv marshrutlarini bosib o'tishni o'z ichiga oladigan, sayohatlar, turistik yurishlar.

**3.22.5.1 rafting:** Puflanadigan qayiqlarda (raftlarda) suzib o'tish.

**3.22.5.2 kayaking:** Kayaklarda suzib o'tish.

**3.22.5.3 yelkanli turizm:** Daryolar bo'ylab suv marshrutlari va ochiq suv zonalaridan kichik va yig'ma yelkanli kemalarda o'tishni o'z ichiga oladigan, sayohatlar, turistik yurishlar.

**3.22.5.4 serfing:** Serfingda uchishdan iborat bo'lgan, suvdagi faol turizm turi.

**3.22.5.5 vindserfing:** Ustiga yelkan o'rnatilgan serfingda uchishdan iborat bo'lgan, faol turizm turi.

**3.22.5.6 veybording:** Snoubord va serfing elementlarini birlashtirgan faol turizm turi.

**3.22.5.7 kaytserfing (kaytbording):** Varrak bilan boshqariladigan serfingda uchishdan iborat bo'lgan, suvdagi faol turizm turi.

**3.22.6 avtomototurizm va velosiped turizmi:** Tegishli harakatlanish vositalarida – velosipedlar, avtomobillar, motosikllar, qor avtomobilari va boshqalarda tekislik va tog'lar bo'ylab marshrutlarni bosib o'tishdan iborat bo'lgan, sayohat, turistik yurishlar.

**3.22.6.1 mauntinbayking:** Velosipedlarda tog' hududlarida sayohat va/yoki sport tushishi.

**3.22.7 speleoturizm (speleologik turizm):** O'rganish va/yoki sport maqsadlarida tabiiy g'orlar bo'ylab sayohat, turistik yurishlar.

**3.22.8 ot turizmi:** Tekislik va tog' hududlari bo'ylab otlarda marshrutlarni bosib o'tishdan iborat bo'lgan, sayohat, turistik yurishlar.

**3.22.9 karavaning:** Tirkama-karvonni (g'ildirakdagi turar-joy) shatakka olib, avtomobilda sayohat qilish.

**3.22.10 kombinasiyalangan turizm:** Faol turizmnинг bir nechta turlariga xos bo'lgan hududlar bo'ylab turistik marshrutlarni bosib o'tishdan iborat bo'lgan, sayohat.

**3.22.11 alpinizm:** Maqsadi tog' cho'qqilariga chiqish bo'lgan faol turizm turi.

**3.22.11.1 qoyaga ko'tarilish/muzga ko'tarilish:** Toshli va muzli devorlarni yengib o'tadigan alpinizm turi.

**3.23 marshrut malaka komissiyasi (MMK):** Turistik marshrutni (turistik yurish) rejalashtirish va bosib o'tish hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilar malakasining natijalarini chiqarish (turistik tajriba hisoblari) bosqichida turistik yurishni ekspert baholashni amalga oshiradigan turistik-sport jamoat organi yoki ixtisoslashtirilgan jamoat tashkilotlari, komissiya.

**3.24 turist:** Yigirma to'rt soatdan o'n ikki oygacha ketma-ket davrda vaqtinchalik mamlakatda (joyda) bo'luvchi yoki vaqtinchalik bo'lish mamlakatda (joyda) bir kundan kam bo'limgan muddatda tunashni amalga oshiruvchi faoliyati manbadan foyda olish bilan bog'liq bo'limgan vaqtinchalik bo'lish mamlakatiga (joyga) tashrif buyuruvchi jismoniy shaxs.

**3.25 ekskursant:** Vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyda) tunab qolmasdan yigirma to'rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs.

**3.26 faol turizmning har xil turlarini o'tkazish texnikasi:** Ma'lum turistik marshrut (yoki uning alohida uchastkasi) ning tabiiy to'siqlarini yengib o'tish usullari va turistlarning xavfsizlikni ta'minlash uchun tegishli jihozlardan foydalanish ko'nikmalari.

**3.27 taktik reja:** Turistik yurishda eng kam kuch, vosita, vaqt va zarur xavfsizlik darajasi bilan belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar va harakatlar majmui.

**3.28 marshrut murakkabligi toifasi:** Turistik yurishdagi to'siqlarning tabiatni, soni va xilm-xilligiga qarab marshrutning davomiyligi, uzunligi va texnik murakkabligi.

**3.29 to'siqlar qiyinligi toifasi:** Turistik yurishdagi mahalliy to'siqlarning texnik murakkabligi (dovonlar, traversalar, cho'qqilar, tosh do'ngliklar, kanyonlar, g'orlar va boshqalar).

#### 4 Asosiy qoidalar

4.1 Yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning xizmatlari tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va/yoki o'zini-o'zi band qilgan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq sotiladigan turistik mahsulot yoki turistik-ekskursiya xizmatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Izoh – Yo'riqchi-yo'l boshlovchilar yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar sifatida, yakka tartibdagi tadbirkor yoki o'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida yoxud tegishli malaka sertifikatini va/yoki vakolatli davlat organi tomonidan berilgan asosiy ta'lim (oliy, kasb-hunar yoki qo'shimcha) to'g'risidagi hujjat va marshrut-malaka komissiyasining (MMK) xulosasini olgandan keyin yuridik shaxslar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari asosida mustaqil ravishda turistik-ekskursiya xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

4.2 Yo'lovchi-yo'l boshlovchilar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati va xavfsizligi O'z DSt ISO 21102, 3.2 bo'yicha uning malakasi bilan tasdiqlanadi.

4.3 Yo'lovchi-yo'l boshlovchi xizmatlari asosiy va qo'shimcha xizmatlarni o'z ichiga oladi.

4.4 Yo'lovchi-yo'l boshlovchilarning asosiy xizmatlariga quyidagilar kiradi:

- turistik marshrutlarda turistlarni (ekskursantlarni) kuzatib borish;
- turistik yurishlarda turistlarning (ekskursantlarning) xavfsizligini ta'minlash xizmatlari;
- turistlarga (ekskursantlar), shu jumladan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha instruktajlar o'tkazish;

- turistlarni (ekskursantlarni) turizmning faol turlari bilan shug'ullanish, xavfli marshrutlardan o'tish ko'nikmalariga o'rgatish;

- turistik marshrutlarni (turistik yurishlar) o'tishda favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini tashkil etish.

4.5 Yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning qo'shimcha xizmatlariga quyidagilar kiradi:

- konsalting, axborot va reklama xizmatlari, shu jumladan faol harakatlanish usullari orqali sayohatlarni tashkil etish va marshrutda xavfsizlikni ta'minlash;

- turistlar (ekskursantlar) uchun xavflarni sug'urtalash va minimallashtirish, turistik jihozlar, asbob-uskunalar va inventarlarni ijara berish xizmatlari;

- axborot materiallari, turistik xaritalar, turistik yurishlar va tabiiy to'siqlar ta'riflarini taqdim etish;

- marshrutda har xil turdag'i transportda tashishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar;

- dam olish xizmatlari, shu jumladan ko'ngilochar tadbirlar, animasion dasturlar va shunga o'xshashlarni tashkil etish bo'yicha xizmatlar;

- turistik marshrutlarda (turistik yurishlar) ovqatlanish xizmatlari tashkil etish bo'yicha xizmatlar;

- jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tadbirlarini o'tkazish (ertalabki mashqlar, yugurish, suzish musobaqlari va boshqalar);

- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;

- turistik marshrutlarda turistlarga (ekskursantlarga), shu jumladan jismoniy imkoniyati cheklangan turistlarga (ekskursantlarga) alohida xizmat ko'rsatish;

- turistlarning (ekskursantlarning) iltimosiga binoan foto va video xizmatlari;

- turistlar uchun guruhli va alohida dam olish va/yoki tunash uchun joylarni tashkil etish.

4.6 Jismoniy imkoniyati cheklangan turistlar (ekskursantlar) uchun turistik-ekskursiya xizmatlarini tashkil qilishda ГОCT 32613 ga asosan maxsus shart-sharoitlarni yaratishni hisobga olish kerak.

## **5 Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga umumiyl talablar**

5.1 Yo'riqchi-yo'l boshlovchilarining xizmatlari va ularni ko'rsatish shartlari turistlarning (ekskursantlarning) hayoti, sog'lig'i va mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lishi, belgilangan talablarga javob berishi kerak.

5.2 Turistik-ekskursiya xizmatlarini ko'rsatish jarayonida:

- O'z DSt ISO 21101 ga muvofiq turistlarning (ekskursantlarning) hayoti, sog'lig'i va mulki uchun xavfning maqbul darajasi ta'minlanishi kerak;

- turistik marshrutning barcha ishtirokchilari yurish marshrutida atrof-muhit va tabiiy resurslarni, shu jumladan O'z DSt ISO 18065 ga muvofiq alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va saqlashga majburdirlar;

- turistik marshrutlarda (turistik yurishlarda) qulay sharoitlar yaratilib, ularga e'tiborli munosabat, xushmuomalalik, xayrixohlik, bag'rikenglik ta'minlanishi kerak.

5.3 Yo'riqchi-yo'l boshlovchilar tomonidan ko'rsatiladigan turistik-ekskursiya xizmatlari maqsadga muvofiq bo'lishi va quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ГОCT 32611 bo'yicha xavfsizlik;

- bajarilishning aniqligi va o'z vaqtida bajarilishi;

- ergonomiklik;

- qulaylik;

- estetiklik;

- ГОCT 32612 va O'z DSt ISO 21103 bo'yicha ma'lumotlar ochiqligi;

- ГОCT 32613 ga muvofiq ochiqlik.

5.4 Turistik marshrutga chiqishdan oldin yo'riqchi-yo'l boshlovchi tomonidan turistik xizmatlar ko'rsatishda:

- turistik marshrutni bosib o'tish rejasi, uning davomiyligi, yuqori murakkablikdagi hududlar, tunash joylari, boshpanalar, pana joylarning, tibbiy yordam punktlarining, aloqa punktlarining joylashuvi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar tuziladi;

- turistik marshrutda turistlar (ekskursantlar) uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar baholanadi va aniqlangan xatarlarni maqbul darajaga tushirish bo'yicha choralar ko'rildi (turistlar, ekskursantlar zarur jihozlar, uskunalar va boshqalar bilan ta'minlanadi);

- turistik-ekskursiya xizmatlarining buyurtmachilariga tegishli hujjat (malaka sertifikati yoki asosiy ma'lumot to'g'risidagi hujjat va MMK xulosasi), tibbiy guvohnoma (talab bo'yicha) taqdim etgan holda o'z malakasi to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi;

- turistik marshrutning murakkablik toifasiga muvofiq guruh tuziladi;

- har bir turistga (ekskursantga) turistik marshrut (turistik yurish), iqlim va ob-havo sharoitlari, shuningdek, yurish marshruti bo'ylab sanitар-gigyenik holat to'g'risida to'liq, zaruriy va ishonchli ma'lumotlar, shu jumladan turistik marshrut, marshrutda joylashgan tabiiy obyektlarning holati (toshqinlar, ko'chkilar, tosh qulashi), transport, muxandislik va turizm infratuzilmasi obyektlari

(yo'llar, ko'priklar, kommunikatsiyalar, boshpanalar, oziq-ovqat obyektlari va boshqalar) to'g'risida kartografik mahsulotlar taqdim etiladi. Turistik-ekskursiya xizmatlari iste'molchilar uchun ma'lumotlar mazmuniga qo'yiladigan talablar GOCT 32612 va O'z DSt ISO 21103 da taqdim etilgan;

- turistlarning (ekskursantlarning) hayoti, sog'lig'i va mol-mulki xavfsizligini ta'minlash va jarohatlarning oldini olish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar taqdim etiladi;

- turistlarni (ekskursantlarni) instruktajdan o'tkaziladi, shu jumladan turistik sayohat (marshrut) turining o'ziga xosligini hisobga olgan holda GOCT 32611, O'z DSt ISO 21101 ga muvofiq xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlar amalga oshiriladi;

- zarur hollarda turistning (ekskursant) sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotnomasi mavjudligi tekshiriladi;

- turistik yurish va turistlar (ekskursantlar) guruhining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar qutqaruv va/yoki favqulodda tezkor xizmatlar uchun taqdim etiladi.

5.5 Turistik xizmatlar ko'rsatish jarayonida gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchisining tegishli malakasiga ega bo'lgan yo'riqchi-yo'l boshlovchilar ekskursiyani taqdim etishi mumkin.

5.6 Turistik yurish haqidagi ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- turistik yurishning muddatlari, joyi (aholi punkti), boshlanishi va tugashi, yurish marshruti, to'siqlarning soni, turlari va murakkabligi, relyef xususiyatlari, iqlim sharoitlari va boshqalar;

- tezkor aloqa telefonlari, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) hududiy xizmatlarining joylashuvi, xabar berish sxemalari va aloqa seanslari;

- marshrutda qutqaruv tadbirlarini amalga oshirish, evakuatsiya qilish va malakali tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

- marshrutning murakkablik toifasi haqida ma'lumot;

- foydalaniladigan individual va guruh uskunalari va jihozlari, shu jumladan shaxsiy himoya vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

- turistlar (ekskursantlar) tomonidan ushbu marshrutni bosib o'tish paytida jismoniy va ruhiy bosimga tibbiy qarshi ko'rsatmalar;

- turistik marshrutdagi real va bashorat qilingan iqlim, barometrik, ob-havo sharoitlari, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va ularni oldini olish choralari.

5.7 Turistik marshrutda (turistik yurish) yo'riqchi-yo'l boshlovchi tomonidan turistik-ekskursiya xizmatlarini ko'rsatishda quyidagi hujjatlar mavjud bo'lishi kerak:

- marshrutni bosib o'tish rejasini ko'rsatish bilan marshrut varag'i yoki marshrut kitobchasi, yurish sanalari va muddatlari, yoshi va aloqa ma'lumotlari ko'rsatilgan turistlar (ekskursantlar) ro'yxati, marshrut sxemasi, tunash joylari, barcha mavjud aloqa vositalari va boshqalar (A ilova);

- harakat yo'nalishlari, tunash joylari belgilangan, asosiy va yordamchi marshrutlar tushirilgan, turistik yurish mintaqasining xaritasi;

- shaxsiy va guruhli turistik jihozlar ro'yxati;

- transport, aloqa punktlari jadvali, tibbiy yordam punktlarining joylashgan manzillari;

- tibbiy buyumlar va birinchi yordam ko'rsatish uchun to'plam;

- mahsulotlarni to'ldirish uchun mumkin bo'lgan joylar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ovqatlanish ratsionlari to'g'risidagi ma'lumotlar (turistik yurish uchun);

- ismi va familiyasi ko'rsatilgan ko'krak nishoni (beydjik).

5.8 Turistik marshrutda yo'riqchi-yo'l boshlovchi tomonidan turistik xizmatlar ko'rsatishda quyidagilar amalga oshiriladi:

- turistlar (ekskursantlar) tomonidan shaxsiy xavfsizlik talablariga rioya etilishi ustidan doimiy nazorat;

- birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha instruktaj olib boriladi, shuningdek marshrutning tabiatи va turistlarning (ekskursantlarning) o'zini tutishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan xavf manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etiladi;

- favqulodda vaziyatlar va baxtsiz hodisalar yuz berganda turistlarga (ekskursantlarga) yordam ko'rsatiladi;

- jabrlangan turistlarga (ekskursantlarga) birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi va jabrlanganlarni tibbiyot muassasalariga yetkazish tashkil etiladi;

- turistlarning (ekskursantlarning) mulki xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rildi;
- marshrutdagi favqulodda hodisalar to'g'risida turistik-ekskursiya xizmati buyurtmachisi, turizm sohasidagi vakolatli davlat organi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xizmati va manfaatdor shaxslar darhol xabardor qilinadi;
- favqulodda holat (vaziyat) tahdidi yuzaga kelganda sayohatni to'xtatiladi va turistlar xavfsiz hududga olib chiqiladi.

## **6 Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga qo'yiladigan talablar**

6.1 Quyidagi shaxslar yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlarini ko'rsatishiga yo'l qo'yiladi:

- 18 yoshdan kichik bo'limgan, turli murakkablik toifasidagi turistik marshrutlarni tashkil etish va o'tkazish kasbiy tayyorgarligi, bilim va ko'nikmalariga ega bo'lgan;
- turizm sohasidagi davlat hokimiyati organlarida yoki ular vakolat bergen tashkilotlarda turizmnинг faol turlarini alohida marshrutlari bo'yicha malaka va kasbiy tayyorgarlik darajasiga muvofiqligi uchun malaka imtihonini topshirgan;
- turistik marshrutlar bo'yicha amaliyot o'tagan va ish tajribasiga ega bo'limgan hollarda marshrut malaka komissiyasi (MMK) xulosasini olgan;
- shifoxonaga qadar tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga, kichik guruhlar psixologiyasi asoslari va ekskursiya ishi asoslariiga ega bo'lgan;
- malaka oshirish va kasbiy ko'nikmalardan o'tgan;
- yiliga bir marta tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i to'g'risida ma'lumotnomaga ega bo'lgan.

6.2 Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlarini ko'rsatish kasb standartlari asosida amalga oshiriladi;

Izoh: Bolalar bilan ishslashda (bolalar turizmi) yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlarini ko'rsatishda Xalq ta'limi vazirligining kasb standartlari va me'yoriy hujjatlariga amal qilinadi.

## **7 Taqdim etilayotgan xizmatlarning sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish va baholash usullari**

7.1 Turistik va ekskursiya xizmatlarining sifati ularni taqdim etishning turli bosqichlarida baholanadi.

7.2 Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlarining ijrosi sifatini nazorat qilish va baholash turistik-ekskursiya xizmatlari buyurtmachilar, ixtisoslashtirilgan jamoat tashkilotlari va turizm sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

7.3 Turistik-ekskursiya xizmatlari sifatini nazorat qilish va baholash usullari quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflanadi:

7.3.1 Qo'llash maqsadlari bo'yicha xizmatlar sifatini nazorat qilish va baholash usullari quyidagilarga bo'linadi:

- xizmatlar sifatining normativ hujjatlar/yoki iste'molchi talablariga muvofiqligini aniqlash;
- xizmatlar sifatining talab etiladigan darajasiga erishishga yordam beradigan omillarni (shartlarni) belgilash;
- bir xil xizmatlarning bajarilishini reytingli baholash.

7.3.2 Fizik-statistik alomatlar va protseduralar bo'yicha xizmatlar sifatini nazorat qilish va baholash usullari quyidagilarga bo'linadi:

- instrumental – texnik vositalardan foydalanish va tegishli o'lchovlarni o'tkazish shaklida;
- ekspertlik – mutaxassislar va ekspertlarning mulohazalarini so'rovnomasi va tahlili (sifat va miqdoriy baholari), shu jumladan ko'rsatkichlar va xizmat ko'rsatish shartlarini o'lichash tahlili asosida;

- sotsiologik – sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish (anketa tuzish, so'rovnama, sayohat, yurish tashkilotchisining sharhlar kitobidagi yozuvlari, internet-sharhlar), so'ngra olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.

7.3.3 Xizmatlar sifatini nazorat qilish va baholash natijalarini shakllantirish usullari quyidagilarga bo'linadi:

- turli xil birlamchi sifat ko'rsatkichlarini aniqlash (maqsad yoki xavfsizlik ko'rsatkichlari yoki xodimlarning ishonchliligi yoki kasbiy darajasi);

- umumlashtirilgan ko'rsatkichlarni shakllantirish.

7.4 Turistik-ekskursiya xizmatlarining sifat ko'rsatkichlarini baholash natijalariga ko'ra, turistik tashkilot, yo'riqchi-yo'l boshlovchi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

## A ilova

(normativ)

### Tog'da yurish xavfsizligi texnikasi bo'yicha turistga eslatma

1. Mustahkam poyabzal va tananing barcha qismlarini qoplaydigan kiyimga ega bo'lish.
2. Belgilangan masofaga rioya qilgan holda, saf tarkibida butalar bo'ylab harakatlanish. Bir-biriga bog'langan ildiz tizimiga, toshlarga, yashirin jarlliklar va boshqa to'siqlar va notejisliklarga e'tibor berish.
3. Tepaga ko'tarilishda (qiyalik bo'ylab) yoki tushayotganda belgilangan masofaga rioya qilish, shunda qulash paytida teparoqdagi ishtirokchi pastdagini yiqita olmaydi.
4. Marshrutni o'zarо xavfsiz bosib o'tishini ta'minlaydigan o'zarо yordam ko'rsatish.
5. Ko'tarilishni birin-ketin amalga oshirish.
6. Oyoqlar uchun imkon qadar yanada barqaror holatni tanlash
7. Pastga tushayotganda orqadagi harakatlanayotgan jinslardan ehtiyyot bo'lish.
8. Nishabning juda o'tkir bo'lishida kamida uchta tuyanch nuqtasiga amal qilish.
9. Ogoh bo'lish va tosh tushishiga sabab bo'lmaslik uchun ehtiyyot bo'lish.
10. Orqada ketayotgan odamni barqaror bo'lmagan toshlar (jonli tosh) borligi haqida ogohlantirish.
11. Tosh o'pirilganda uni to'xtatishga harakat qilish. Agar buni amalga oshirishni iloji bo'lmasa, "Tosh!" deb baqirish.
12. Ko'tarilish va tushishda to'liq oyoqni bosib harakatlanish.
13. Chodir uchun joy iloji boricha quruq va tekis bo'lishi, to'nkalar, do'ngliklar, bo'ronda sinib tushgan daraxt va shox-shabbalar va toshlarda xoli bo'lishi kerak.
14. Ko'chkilarning oldini olish uchun o'tkir nishablar, qoyalari osilgan kuluarlar va qor to'siqlari, tosh qulashi, ko'chkilar, loy oqimlari va qor ko'chkilari xavfini tug'diradigan joylarda tunash uchun joy tayyorlamaslik kerak.
15. Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Yo'riqchi tomonidan ko'rsatilgan joylarda gulhan yoqish.
16. Tabiatga g'amxo'rlik qilish. Unga zarar bermaslik, tirik daraxtlar va butalarini kesmaslik. To'xtash joylarini (tunash joylari) o'zidan keyin toza qoldirish. Chiqindilarni tabiatga zarar yetkazmasdan yoqish, shundan so'ng uni maysazorga zarar bermasdan ko'mib qo'yish.
17. O'z sog'lig'ini nazorat qilish. Sog'lig'ining yomonlashgani haqida yo'riqchiga o'z vaqtida xabar berish. Odatiy dori vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi.
18. O'zining va qo'shni guruhlarning a'zolariga, o'ziga qanday munosabatni ravo ko'rsa, shunday munosabatlar bo'lish.
19. Marshrutdagi o'z xulqi, harakatlari bilan boshqa turistik guruhlar va mahalliy aholi bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga yordam berish, ularning an'analari, urf-odatlari va madaniy xususiyatlarini hisobga olish.
20. Notanish joylarda va yurish yo'riqchisining ruxsatisiz cho'milmaslik.
21. O'zgalarga va o'ziga zarar yetkazadigan harakatlari qilmaslik.
22. Hayyonlar va o'simliklarning yashash sharoitlarini buzmaslik. Odamlar tomonidan va odamlar uchun qurilgan narsalarni buzmaslik.
23. Yurish uchun chiqarilgan asbob-uskunalar va mol-mulkni ehtiyyot qilish. Chodirlarda chekmaslik, sham yoqmaslik, alanga yoqmaslik.
24. Yonida shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni olib yurish, ularning yo'qolishi va shikastlanishiga yo'il qo'ymaslik.

Sayohatingiz yaxshi o'tsin!

Dam olish kun  
birinchi darajasi  
\_\_\_\_\_ soni

Turistlar guruhi

Tarkibda \_\_\_\_\_ kishilar ma

«\_\_\_\_\_»  
(\_\_\_\_ / \_\_\_\_ kun / tun)

Marshrut masofasi: \_\_\_\_\_ km.(

dala sharoitida \_\_\_\_\_ kecha

Guruh sardori (yo'riqchi): \_\_\_\_\_

Marshrut varag'i berilgan sana «\_\_\_\_»

Javobgar shaxsning imzosi \_\_\_\_\_

NºNº t/r	Familiya, ism, sharif	Manzil, telefon

Ro'yxatga olish joyi:

«\_\_\_» \_\_\_\_ 20 \_\_\_\_y.

---

Muhim so'zlar: yo'riqchi-yo'l boshlovchi, turist, turistik yurish, turistik marshrut, talablar

O'zgartirishlarni ro'yxatga olish varag'i

O'zgartirish raqami	Varaq raqami (bet)				Hujjat raqami	O'zgartirish kiritilgan sana	O'zgartirish kiritilgan sana
	o'zgartirilgan	almashtirilgan	yangi	Bekor qilingan			

Texnik qo'mita raisi

Sh.Sharipov

**ISHLAB CHIQILDI:**

Turizmni rivojlantirish  
ilmiy-tadqiqot instituti directori

Y. Golisheva

Turizmni rivojlantirish  
ilmiy-tadqiqot instituti  
Kasbiy rivojlantirish va baholash bo'limi  
Bosh mutaxassisi

F. Boyko